

II JAHON URUSHI YILLARIDA SURXONDARYO VILOYAT SOG'LIQNI SAQLASH MUASSASALARI VA TIBBIYOT XODIMLARINING G'ALABA UCHUN HISSALARI

Mamatraimov Urol Mamatmurodovich

Tadqiqotchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20199397>

Annotatsiya: *Urush yillarida Surxondaryo viloyati nafaqat strategik orqa hudud, balki evakuatsiya qilingan aholi, yaradorlar va harbiy qismlarni qabul qilish markazlaridan biri bo'lgan. Ushbu tezisda viloyat tibbiyot muassasalarining safarbarlik sharoitida qayta tuzilishi, kadrlar salohiyatining urush ehtiyojlariga bo'ysundirilishi, shuningdek, tibbiyot xodimlarining front va mehnat jabhasida ko'rsatgan fidoyiliklari ilmiy tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *gospital, sanitariya drujinasi, sanitariya-profilaktika ishlari, vabo epidemiyasiga qarshi kurash, bolalar yaslilari.*

Ikkinchi jahon urushi davrida butun sovet xalqi singari O'zbekiston xalqi ham g'alaba uchun bor kuchini safarbar qildi. Bu og'ir sinov yillarida Respublikaning barcha sohalari, xususan, sog'liqni saqlash tizimi tubdan qayta qurilib, o'z faoliyatini front ehtiyojlariga to'liq bo'ysundirdi. Germaniya tomonidan Sovet Ittifoqiga urush e'lon qilinishi bilan butun mamlakat bo'ylab "Hammasi front uchun, hammasi g'alaba uchun" tamoyili joriy etildi. Bu davrda Surxondaryo viloyati sog'liqni saqlash muassasalari va tibbiyot xodimlari vazifasi sifatida yaradorlarni davolash, epidemiologik xavfsizlikni ta'minlash, mehnat resurslarini saqlash va frontga tibbiy kadrlar tayyorlash hisoblangan.

1941-yilda O'zbekistonda 368 ta kasalxonalar va 19 498 davolash o'rinlari mavjud bo'lgan bo'lsa, 1945-yilga kelib shifoxonalar 481 taga, davolash o'rinlari 24 848 taga, vrachlar esa 2561 tadan 2984 taga ortdi [1]. Surxondaryo viloyati, mamlakatning janubiy chegarasida joylashgan strategik hudud sifatida, bu jarayonlarda muhim rol o'ynadi.

Urush davrida viloyatda qisqa muddat ichida Qizil Xoch va Qizil Yarim oy jamiyatlari tomonidan hududda 25 nafar sanitar drujinachisi, 550 nafar hamshiralar tayyorlandi. 750 nafar qiz donor bo'ldi. Bu yerda tayyorlangan ko'pgina drujinachilar ko'ngilli sifatida fronga jo'nab ketishdi [2]. Termiz shahridagi "Karl Marks" nomli maktabning o'quvchisi Antonina Gogoleva sandrujina o'quv kurslaridagi mashg'ulotlarni yakunlagach o'zi bilan voyenkomatga 30 nafar kursdoshini olib keldi. Ularning hammasi frontga jo'natishlarini so'rashgan. Jamoaviy iltimos qondirilib, Termiz shahrida shakllantirilayotgan 213-o'qchi diviziyaning 373-sonli medsanbatiga xizmatga olindi [3].

Urush boshlanishi bilan vohadagi ko'plab tibbiyot xodimlarining harakatdagi armiyaga ketishi vaziyatni ancha og'irlashtirib qo'ydi. Misol uchun, Jarqo'rg'on tumani sog'liqni saqlash muassasalarida faoliyat yuritgan K.S.Karmakov, K.Ye.Sidorov, A.A.Dorofeyev, A.I.Grechkin, K.S.Verbitskaya, B.T.Lepeshkov va A.Haydarov singari o'nlab shifokorlar frontga yuborildi [4].

Respublika miqyosida barcha davolash muassasalari, tibbiyot kadrlari va moddiy resurslar harbiy izga solindi. Asosiy e'tibor yaradorlarni davolash, kasalliklarning oldini olish va frontga sog'lom qo'shimcha tayyorlashga qaratildi. Shu sababdan urush yillari O'zbekiston frontning asosiy sihatgohlaridan biriga aylandi. Viloyatdagi dastlabki harbiy gospital Termiz

shahridagi “Pravda” gazetasi nomidagi 2-sonli maktabining 1936-yilda qurilgan 2 qavatli yangi binosida tashkil etildi [5].

Ikkinchi jahon urushi yillarida viloyat sog'liqni saqlash sohasiga epidemiyalarning oldini olish, sanitariya-profilaktika ishlari targ'iboti kabi murakkab vazifalar ham yuklangan edi. Surxondaryo hududi oldindan vaboning o'chog'i bo'lib kelganligi bois qo'shni Afg'onistonda ham tez-tez vabo epidemiyalarning tarqalib turishi sog'liqni saqlash xodimlari oldiga juda katta mas'uliyatni yukladi. Vabo tarqash ehtimoli yuqori bo'lganligi uchun Surxondaryo viloyat ijroiya qo'mitasi raisi 1942-yil 22-yanvarda oblast va chegara chizig'i bo'ylab vaboga qarshi profilaktika o'tkazish bo'yicha professor Yermolevning rejasini tasdiqladi. Profilaktika ishlarini muvofiqlashtirish maqsadida viloyat ijroiya qo'mitasi raisi qoshida Aliyev boshchiligidagi ishchi komissiyasi tuzildi. Amudaryo va Surxondaryo suvlaridan tahlil olish uchun laboratoriya tashkil qilinib, unga bitta foytun arava, bir avtomobil ajratildi. “Vostokintorg” direktori Smirnovga, davlat paroxodchiligi boshlig'i Pestovga, Termiz gornizoni va chegara otryadi komandirlariga, Termiz shahar ijroiya qo'mitasi raisi Mirzayev va Termiz tuman ijroiya qo'mitasi raisi Abdurahimovga profilaktika choralarini hayotga tatbiq etish bo'yicha barcha choralarni ko'rishlari lozimligi belgilandi [6].

Shu bilan birga, 1942-yil 19-may kuni Sho'rchi tuman ijroiya qo'mitasi raisi 2-sonli majburiy farmoyish chiqardi. Unga ko'ra, 1942-yil 2-iyunga qadar tumanda yashovchi 8 yosh va undan katta bo'lgan kishilarni qorin isitmasi (tif) ga qarshi majburiy emlashdan o'tkazish topshirig'i berildi [7]. Sherobod tuman ijroiya qo'mitasi raisining 1943-yil 26-iyundagi 105-sonli qaroriga ko'ra, Sherobod rayon aloqa bo'limi boshlig'i Saidqulovga 10 yillik tibbiy stajga ega bo'lgan sobiq tibbiyot xodimi Anna Pleskovichni zudlik bilan raydrav ixtiyoriga komandirovka qilish taklif etilgan [8].

Urush davrida mehnat resurslarini saqlash va ayollarni ishlab chiqarishga jalb qilish maqsadida bolalar yaslilari tashkil etildi. 1942-yilda viloyat hududida 71 ta doimiy yaslilar va 327 ta mavsumiy yaslilar faoliyat yuritgan. Doimiy yaslilarning 10 tasi shahar joylarda va 61 tasi esa qishloq joylarda faoliyat yuritgan [9]. 1944-yil 30-sentyabrda O'zSSR Sog'liqni saqlash xalq komissarligi onalar va bolalar salomatligini mustahkamlashga qaratilgan buyrug'i e'lon qilindi [10]. Buyruqda Termiz shahrida bolalar ambulatoriyasini tashkil etish, tug'ruq o'rinlarini ko'paytirish, shuningdek, joylarda ayollar maslahatxonalarini ochish, kolxozlararo akusherlik punktlarini tashkil etish kabi tadbirlar belgilandi.

Xullas, Ikkinchi jahon urushi yillarida Surxondaryo viloyati sog'liqni saqlash muassasalarining faoliyati butunlay front ehtiyojlariga bo'ysundirilgan edi. Viloyat tibbiyot xodimlari o'zlarining kasbiy mahorati va fidoyiliklari bilan g'alabaga munosib hissa qo'shdilar. Ular nafaqat frontda yaradorlarni qutqarishdi, balki orqadagi mehnat fronti ishchilarining salomatligini saqlash, evakuatsiya qilingan aholi va yetim bolalarga tibbiy yordam ko'rsatishda ham faol ishtirok etishdi.

E'tiborli tomoni shundaki, Ikkinchi jahon urushi yillari vohalik tibbiyot xodimlari ham Vatan himoyasi ishiga o'zlarining munosib hissasini qo'shib, ko'rsatgan jasorati va fidokorona mehnati evaziga orden va medallar bilan taqdirlanishi vatanparvarlikning yaqqol namunasi sifatida namoyon bo'ldi. Ushbu tajriba keyingi yillarda viloyat sog'liqni saqlash tizimining rivojlanishiga poydevor bo'lib xizmat qildi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Советское здравоохранение. - 1975. - № 10. - С. 68.
2. Халияров Х., Бычков Д., Блинников А. Сурхандарьинская область. –Т.: Узбекистан, 1974. – С.25.
3. Soatov O., Tursunov S., Umarov I., Toshev K. Frontdan kelgan xatlar. - Toshkent: Tafakkur, 2020. – B.94.
4. Mo‘minov O‘., Eshmurodov R. Jarqo‘rg‘on tibbiyoti: kecha va bugun. – T: Yangi asr avlodi, 2006.16-17 bet
5. Surxondaryo viloyat davlat arxivi. 45-fond, 1-ro‘yxat, 28-ish, 14-, 34-varaqlar.
6. Surxondaryo viloyat davlat arxivi. 45-fond, 1-ro‘yxat, 28-ish, 98-102-varaqlar.
7. Surxondaryo viloyat davlat arxivi. 45-fond, 1-ro‘yxat, 30-ish, 255-varaq.
8. Tursunov S., Tursunov A., Tog‘ayeva M. Sherobod tarixidan lavhalar. –Т.: Yangi nashr, 2014. – B.241.
9. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 77-fond, 1-ro‘yxat, 4-ish, 5-varaq.
10. O‘zR ITTHMDA, 3-fond, 1-ro‘yxat, 55-yig‘ma jild, 27-varaq.